

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MAHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

rektori _____ O.SH.Bazarov

« _____ » _____ 2022 y

BINO INSHOOTLARNI HATLOVDAN O‘TKAZISH

fanining

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	300 000	-	Ishlab chiqarish- texnik soha
Talim sohasi	310 000	-	Muhandislik ishi
Talim yo‘nalishi	5311500	-	Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish)

Qarshi – 2022

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: **G‘.Aliqulov** – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası mudiri q.x.f.n., dots.

Taqrizchilar: **M.Bozorov** – QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası o‘qituvchisi.

A.Jo‘rayev - “O‘zdaverloyiha” DILI Qashvilyerloyiha bo‘linmasi loyiha bosh muhandisi

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil “_____” “_____”dagi “_____” - sonli bayonnoma).

Kirish.

Ushbu dastur geodeziya, kartografiya va kadastr, yer tuzish va yer kadastr sohalari bo'yicha Yer va bino inshootlar hatloviga doir axborotlarni, shahar va qishloqlarda yer va binolarni hatlovi, yerni hisobga olish va yer bahosiga oid axborotlar majmuini tashkil etishini, hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lishi to'g'risidagi bilimlarni qamrab oladi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad- talabalarga aholi punkti hududidagi yer va binolar - inshootlar xatlovi tizimi, ishlari jarayoni, jumladan, yer va binolar - inshootlar xatlovini tashkil qilish ishlarini o'rganish va xatlovdan o'tkazish tartibi, talablari, aholi punktlarida yer uchastkalari va binolar-inshootlarning miqdor, sifat va meyoriy qiymati hamda tarixiy hududlar va binolar-inshootlar xatlovini hamda xatlov natijalarini rasmiylashtirish jarayonlari haqida ma'lumotlar berish.

Fanning vazifasi- talabalarga aholi punkti hududidagi yer va binolar – inshootlarni xatlovdan o'tkazish jarayonini, ularning miqdor va sifat hisobini hamda xatlov natijalarini umumlashtirish, ko'rib chiqish, kelishish va tasdiqlash va rasmiylashtirish ishlarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabaniing bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar.

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Respublikamizdagi yer va binolar - inshootlardan oqilona foydalanishda va milliy hisobotini tuzishda yer va binolar - inshootlar xatlovining o'рни va ahamiyatini, tuman va shahar hududlaridagi yer va binolar inshootlar xatlovini yuritish hamda natijalarini rasmiylashtirishni haqida bilim va tasavvurga ega bo'lishi kerak;

- Yer va binolar – inshootlar xatlovini o'tkazishning xuquqiy holatlari ulardan optimal darajada foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;

- Yer va binolar - inshootlar fondidagi miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, xatlov natijalarini rasmiylashtirishni malakalarga ega bo'lishi lozim.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi.

“Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish” fani tanlov fan hisoblanib, 7-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirishda o'quv rejasida rejalashtirilgan umumkasbiy (Geodeziya, Shahar kadastr va bosh.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Geodeziya kartografiya va kadastr ta'lim yo'nalishi uchun "Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish" fani mutaxassislik fanlardan hisoblanadi hamda "Matematika", "Geodeziya", "Shahar kadastr" kabi fanlar bilan o'zviy bog'liq.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.

Respublikamizning iqtisodiyot tarmoqlarida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va agrar sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri barcha mavjud resurslardan, xususan yer resurslaridan, bino va inshootlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishni takomillashtirish hisoblanadi.

Shuning uchun "Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish" fani bino va inshootlarning hisobini belgilashda va ularning o'rinlarini aniqlashda, kadastr ma'lumotlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan mutaxassislik fani hisoblanib ishlab chiqarishda geodeziya, geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.

Talabalarning "Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallari, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishda mavjud holatlarning rasmlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliyot darslarida mavzularga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

1-mavzu. Yer va binolar - inshootlar xatlovi tizimi:

"Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish" fanining predmeti va vazifalari. Binolar - inshootlar xatlovida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar. Binolar - inshootlar xatlovini o'tkazish va yuritish sohasidagi davlat boshqaruvi va ularning huquqiy vakolatlari.

2-mavzu. Yer va binolar-inshootlar xatlovini o'tkazish va yuritish jarayonlari:

Yer va binolar - inshootlarni xatlovdan o'tkazish tarkibi va muddatlari. Yer va binolar - inshootlarni xatlovdan o'tkazish tartibi va talablari. Yer va binolar - inshootlar xatlovi natijalarini umumlashtirish, ko'rib chiqish, kelishish va tasdiqlash.

3-mavzu. Yer fondi toifalari xatlovini o'tkazish

Yer fondi toifalari turlari. Qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlar xatlovi. Aholi punktlari yerlari xatlovi. Muhandislik inshootlari va boshqa toifadagi yer uchastkalari xatlovi.

4-mavzu. Aholi punkti hududidagi yer uchastkalari xatlovini o'tkazish:

Aholi punktlarida yer uchastkalari turlari. Yer uchastkalari xatlovini o'tkazish ishlari. Tarixiy hududlar xatlovi. Yerlarning sifat, miqdor va meyoriy qiymat xatlovi.

5-mavzu. Axoli punkti hududidagi binolar xatlovini o'tkazish:

Aholi punkti hududidagi binolar turlari va qurilish hujjatlari. Binolar xatlovini o'tkazish tartib va talablari. Binolar holatini aniqlash va konstruktiv qismlari xatlovi. Tarixiy binolar xatlovi. Binolar qavatlarini rejasini tuzish va o'lchamlarini hisoblash. Binolarning miqdor va sifat xatlovi.

6-mavzu. Axoli punkti hududidagi inshootlar xatlovini o'tkazish

Axoli punkti hududidagi inshootlar turlari. Injenerlik kommunikatsiyalarni qurishdagi me'yorlar. Inshootlar xatlovini o'tkazish tartib va talablari. Yer usti inshootlari xatlovini o'tkazish. Yer osti inshootlari xatlovini o'tkazish. Inshootlar rejasini tuzish va o'lchamlarini hisoblash.

7-mavzu. Aholi punktlarida yer va binolar va inshootlar yalpi xatlovini o'tkazish

Yalpi xatlovni o'tkazish tartibi va talablari. Yalpi xatlovni o'tkazish. Yalpi xatlov o'tkazish natijalarini rasmiylashtirish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yer va binolar - inshootlar xatlovini o'tkazish va yuritish sohasidagi davlat boshqaruvi va ularning huquqiy vakolatlarini o'rganish.
2. Yer fondi toifalari bo'yicha xatlov o'tkazish va hujjatlashtirishni o'rganish
3. Yer va binolar - inshootlar xatlovi tizimini o'rganish.
4. Yer uchastkalari turlari va ulardan foydalanish xususiyatlarini hamda toifalarga bo'lishni va huquqiy xujjatlarini o'rganish.
5. Yer va binolar - inshootlar turlarini o'rganish.
6. Yer va binolar - inshootlar xatlovini o'tkazish.
7. Tarixiy hududlar va binolar xatlovini o'tkazish ishlarini o'rganish.
8. Binolar qavatlarini rejasini tuzishni va o'lchamlarini hisoblashni hamda hujjatlashtirishni o'rganish
9. Yer usti va osti inshootlari xatlovini o'tkazishni xamda rejasini tuzish va o'lchamlarini hisoblashni o'rganish.
10. Yer va binolar - inshootlar xatlovi natijalarini hujjatlashtirishni o'rganish.
11. Muhandislik inshootlari xatlovini o'tkazish va himoya hududlarini o'rnatish.
12. Yalpi xatlovni o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor- o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. I. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

III. II. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

5311500- Geodeziya, kartografiya va kadastr ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida "Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish" fani bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

III. Hisoblash grafik ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar:

Hisoblash grafik ishlari ta'lim yo'nalishiga mos ravishda tanlab olinadi. Bir o'quv yilida hisoblash grafik ishlarining soni to'rtadan oshmasligi tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan "Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish"ga tegishli talaba o'zi yashab turgan hudud(maxallasi) misolida

yer uchastkalari, binolar va inshootlar xatlovini o'tkazish bo'yicha har bir talabaga alohida topshiriq beradi.

Berilgan topshiriqqa asosan "Hisoblash grafik ishi"da quyidagi masalalarni bajaradi:

1-XGI bo'yicha:

- talaba o'zi yashab turgan hudud misolida hududdagi yer uchastkalari xatlovini o'tkazadi;

- tegishli xatlov ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tushuntirish xatida izohlaydi.

2-XGI bo'yicha:

- talaba o'zi yashab turgan hudud(maxallasi) misolida turar va noturar joy binolari xatlovini o'tkazadi ;

- turar va noturar joy binolari xatlovini o'tkazish ishlarini tushuntirish xatida izohlaydi.

3-XGI bo'yicha:

- talaba o'zi yashab turgan hududdagi yer osti va yer usti muhandislik inshootlari xatlovini o'tkazadi va himoya hududlarini belgilaydi.

- yer osti va yer usti muhandislik inshootlari xatlovini o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tushuntirish xatida izohlaydi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;

2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastr to'g'risida»gi qonuni

3. O'zbekiston Respublikasi «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonuni

4. Mustaqil hamdo'stlik davlatlarining yer to'g'risidagi qonunlarini o'rganish

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to'g'risida" gi 278 –son qarori.

6. "Binolar va inshootlar davlat kadastr " fani bo'yicha qo'llaniladigan asosiy tushunchalar

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31 dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish

hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash hakida»gi 492- son qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 avgustda gi "2016-2017 yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 251-son qarori.

9.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 17 mayda gi "Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-son qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 iyuldagi “Avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 213-son qarori.

11.O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2002 yil 15 maydagi “Magistral gaz quvurlarning (mgq) gaz taqsimlash shoxobchalari (gtsh) va avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor shoxobchalarida (agtksh) suyultirilgan tabiiy gazni ishlab chiqarish, saqlash va yetkazib berishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 20-15-162/13-son qarori.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Dasturning informatsion – metodik ta’minoti

“Bino va inshootlarni xatlovdan o‘tkazish” fanini o‘qitish jaryonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron –didaktik texnologiyalaridan;

- amaliy mashg‘ulotlarda aqliy, guruhli fikrlash va boshqa pedagogik texnologiyalardan;

- masalalarini yechishda kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Aliqulov G‘.N., Jo‘raqulov O.D., Niyazov V.R. “Yer uchastkasi va bino-inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” O‘quv qo‘llanma. Qarshi, 2016. -187 b

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 yanvardagi “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1-son qarori.

2. Juraqulov D.O. Yer va bino inshootlar ro‘yxati va hisobi. Darslik. Toshkent: Fan, 2019. – 552 b.

3.Jurakulov D.O., Yarmatova D.S. Davlat yer kadastr. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Fan, 2019.-352 b.

4. Juraqulov D.O. Yer va binolar - inshootlar huquqi.O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Fan, 2019.-304 b.

5. Juraqulov D.O. Binolar va inshootlar davlat kadastr.O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Lesson press”. 2020. 490 bet.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5065-son farmoni

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘chmas mulkni kadastr hisobiga olish va uni ro‘yxatdan o‘tkazishning keng qamrovli avtomatlashtirilgan axborotlar tizimini yaratish to‘g‘risida”gi qarori

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 492- son karori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 avgustdagi “2016-2017 yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 251-son qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 66-sonli qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasining 2014 yil 12 sentabrdagi “Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma‘lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 12-sonli qarori.

12. Mirziyoyev Sh.M. Ekin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2016 yil.

13. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2017 yil.

14. Yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishga doir qonun va meyoriy hujjatlar to‘plami. Toshkent. 2000y.

15. Avchiyev Sh.K. “Amaliy geodeziya”. Toshkent. “Voriz” nashriyoti MCHJ. 2010.

16. Juraqulov D.O., Pirnazarov I.M., Niyazov V.R., Urokov O.A. “ Kadastr xizmatidagi geodezik ishlar” O‘quv qo‘llanma: Toshkent: “Fan va texnika” 2016 y.

17. Juraqulov D.O., Yarkulov Z.R., Umarov N.SH. “Davlat yer kadastrini yuritish” Kurs ishini bajarish uchun. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand. SamDAQI. 30.10.2019 № 3.-152 b.

Axborot manbaalari:

18. <http://www.stroi.ru/>;

19. <http://www.rambler.ru/>;

20. http://el.tfi.uz/pdf/enmcoq22_uzl.pdf.